

Javohir Nuraliyev

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti
Madaniyatshunoslik yo'nalishi magistranti
E-mail: begona.0104@gmail.com*

**JADIDLAR TAFAKKURIDA TO'Y VA MAROSIMLAR ISLOHOTI:
AN'ANA VA MA'NAVIY YANGILANISH O'RTASIDAGI DIALEKTIKA**

***Annotatsiya.** Maqolada jadid ziyolilarining o'z davrida illatga aylanib
ulgurgan va bugungi kunda ham muammoli vaziyatlarga sabab bo'layotgan
dabdabali to'y va marosimlar haqidagi tanqidiy qarashlari tahlil qilinadi.*

***Kalit so'zlar:** jadidchilik, madaniyat, to'y, aza, an'ana, marosim, qadriyat,
ma'naviy uyg'onish, ijtimoiy tengsizlik.*

**REFORM OF WEDDINGS AND CEREMONIES IN JADID THOUGHT:
THE DIALECTIC BETWEEN TRADITION AND SPIRITUAL RENEWAL**

***Abstract.** The article analyzes the critical views of Jadid intellectuals on
lavish weddings and ceremonies, which became a vice in their time and continue to
cause problematic situations today.*

***Keywords:** jadidism, culture, wedding, mourning, tradition, ceremony, value,
spiritual awakening, social inequality.*

O'zbek millati boy tarix hamda qimmatli moddiy va nomoddiy merosga ega millat. Asrlar davomida shakllangan qadriyat va urf-odatlarimiz bilan ko'p sonli millatlar qatorida o'zimizning munosib o'rnimizga egamiz. An'ana va qadriyatlarga sodiqligimiz ham hech kimga sir emas. Millat o'zligini saqlab qolishida an'ana, qadriyat va urf-odatlarning o'ni beqiyos ekanligiga shubhamiz yo'q, ammo bir an'anamiz borki, uni illat desak yanglishmagan bo'lamiz. Bundan bir asr ilgari ham mavjud bo'lgan bu an'ana – dabdabali to'ylarimizdir.

Jadid ma'rifatparvarlari ham o'z zamonasida dabdabali to'ylarni kamaytirish, ularni islom dini aqidalariga mos tarzda tashkil etish yo'lida ko'plab maqolalar, she'rlar, dramalar va boshqa asarlar yaratishdi. Xalqni bu illatdan xalos etish yo'lida turli xil islohotlar o'tkazishdi. Bor-budini to'ylarga sarflab xonavayron bo'lgan kimsalar taqdiri haqidagi achinarli asarlar yaratildi. Ammo, afsuski, muammo hal

bo'lmadi. Bir asr ilgari mavjud muammoning hali-hamon muammoligicha turganligi achinarli holat bo'lsa-da tan olishga majburiy.

Jadid ziyolisi Abdulla Avloniy o'z davrida avj olgan to'ylar haqida shunday yozadi: "Dard ustiga chipqon" degandek, kundan kunga bid'at ustiga bid'at ortmakta. Ulamo, fuzalo va eshonlarimiz zikr va tasbeh o'rniga "to'y ustiga to'ylar bo'lsun" so'zini viridi-zabon qilmakta. Ag'niyo va sarvatdorlarimiz to'y poygasi qilub, bir-birlarining bor yo'qlariga qaramasdan, faqir va kambag'allarimiz uylarini, bog'larini, otlarini, to'nlarini sotub to'yga sarf qilmakdurlar"

[1, 339-b]. O'z xalqining madaniy muhitdan yiroqlashib ketayotganligini anglagan Avloniy o'z maqolasida barcha madaniy pastlashlarning sababchisi ilmsizlik va to'y deb aytadi: "Bu taraqqiy zamoni va madaniyat asri, bilmam bizni na yerga olib borajak, ibrat ko'zi ila eski shahrimizning musulmon dahalariga nazar solgan kishi har mahallada yuzdan to'qson xonalarni(ng) buzilgan, yorilgan, vayrona va inqiroz dunyosiga yuzlangan bir holda ko'radir. G'oyo bu xonalarning devorlari, tomlari lisoni hol ila bizni ilmsizlik, tarbiyasizlik, to'y deb minglarcha aqchalarni behuda isrof qilmak, to'ylarda jomafurushlik qilmak vayrona va xarobazorlikg'a soldi, deyurlar" [1, 338-b].

Abdulla Avloniy madaniyatni shakllantirish uchun, avvalo, xalqning maishiy hayotini isloh qilish, xalqning maishiy hayotini yaxshilash uchun esa jamiyatda ildiz otgan ilmsizlikning eng yuqori nuqtalaridan biri sifatida namoyon bo'ladigan to'ylarni isloh qilish kerakligi haqida yozadi: "Och-yalang'och, kulfat, mehnat va zahmat balolari orasida o'ralib qolgan bir qavmga: "Madaniyatga kiringiz, maktab solingiz, o'qungiz, taraqqiy qilingiz" kabi so'zlarning foydasi o'lmadig'i oftobdan ham ravshandir. Bu faqirlikning eng qo'rqunch to'lqunlari orasida ezilgan xalqimizni to'y marazidan qutqarurga tirishmak va iloj istamak lozimdir" [1, 339-b]. Darhaqiqat, bu kabi dabdabali to'ylar balosidan qutulgan jamiyatning maishiy hayoti iziga tushadi va iqtisodiy muammolari ham kamayadi.

Buyuk ma'rifatparvar adiblardan biri Abdulla Qodiriy "To'y" she'rida ortiqcha xarjli to'ylarni qoralaydi va shariatimizda ham dabdabali to'ylar yo'qligini aytadi:

Amr etubdurmu bizg'a Qur'on to'y.
Mundayin ishlar shar'imizda yo'q,
Kori ma'jus, kori shayton to'y.
Ishlamas shunday aqllik kishi,
Yo'lamas aslo ahli vijdon to'y.
O'tsa to'y birla yoz-u qishimiz,
Aylagay bizni yerg'a yakson to'y.
Kelingiz do'stlar, din qarindoshlar,
Tashlasun bo'lsa gar musulmon to'y [2, 13-b].

Abdulla Qodiriy "Fikr aylag'il" she'rida dabdabali to'ylar uchun insonlar bor-budini, hatto yerlarini ham sotishga tayyor ekanligini aytadi va bu kabi to'ylarning jamiyatimiz hayotida qanday tomir otganligi haqida yozadi:

Yer sotarlar elda necha to'y bajo etmak uchun,
Chunki bid'atin yo'lida ham fidodur jon-u tan [2, 15-b].

Bizning bu maqolada to'ylarni butunlay qoralash niyatimiz yo'q, aksincha, maqolani ko'p sonli ziyolilar qatorida bekorchi sarf-xarajatlar bilan to'lib toshgan dabdabali to'ylarni tartibga solish tarafdori sifatida yozmoqdamiz. Qadimdan yurtimiz hududida shakllanib kelgan to'ylarning xalq va ijtimoiy muhit uchun ijobiy tomonlari ham yo'q emas. Bu haqida yana bir ma'rifatparvar adib Abdurauf Fitrat o'zining "Oila yoki oilani boshqarish tartiblari" asarida to'xtaladi va shunday yozadi: "Agarda to'y munosabati bilan bir qator dindosh va vatandosh yor birodarlar bir joyda yig'ilib xursandchilik qilib, samimiy suhbat qilsalar, albatta, bir millat a'zolari o'rtasida bo'lgan muhabbat va mehribonlik ziyoda bo'ladi. Ba'zilar orasidagi kek va kudurat shu bahonada yo'qoladi. Buning ustiga, qancha miskin va muhtoj odamlar shu mavrid bilan to'y ne'matlaridan bahramand bo'ladilar. Shuning uchun ham to'y foydali marosimdir" [3, 41–42-b]. Adib to'ylar haqida fikr yuritarkan ularning foydali marosim ekanligi haqida aytadi, ammo ularning ortiqcha dabdabasini u ham qoralaydi va bu kabi ko'p xarjli to'ylar dinimizga ham ma'qul kelmasligini ta'kidlaydi: "Bizning mamlakatimizda to'y ko'p zararlarga sabab bo'lgan hollari mavjud. Buxoroda shunday odamlar borki, o'n-o'n ikki yil davomida besh-olti

ming so'm mablag'ni zo'r berib yig'adilar. Bir hafta hammasini "to'y" nomi bilan nobud qiladilar, yana qarzidor va kambag'al bo'lib qoladilar. To'y kunlari sarpo kiygan, yeb-ichgan odamlar to'y egasining ahvolini ko'rib masxara qiladilar. Hatto, kelib ahvolini so'ramaydilar ham. Agarda bu beandishadan: "Shuncha mol-holni nimaga behuda sarf va xarj qilib, bu qora kunga tushdingiz? Qaysi din, qaysi mazhab, qaysi hukumat va qanday qonun sizlarni bu ahmoqona ishga majbur qildi?" – deb so'rasangiz, albatta, javob bera olmaydilar. Bunday to'ylar islom shariatida yo'q, chunki bu isrofgarchilikdir, isrof esa shariatda haromdir. Ibn Mas'ud (r.a) rivoyat qiladilar: "Payg'ambar (s.a.v.) dedilar: "To'yda birinchi kunning taomi haq, ikkinchi kunning taomi sunnatdir, lekin uchinchi kunning taomi riyodir. Kim riyokorlik qilsa, Xudo uning ikkiyuzlamachiligini xaloyiq ichida fosh qiladi" [3, 42-b].

Oramizda ham do'stlarimiz, qon-qarindoshlarimiz to'ylarni bir-birlarinikidan dabdabaliroq qilib o'tkazishga harakat qilishmoqda. "Pul ketsa ketsin, ammo obro' ketmasin", – deya bor-budlarini to'yga sarf qilishmoqda. Dinimizda esa kimdandir o'zish uchun qilingan to'ylar qoralanadi. Abu Hurayra (r.a.) rivoyat qiladilar: Nabiy alayhissalom dedilar: "Ikki odam bir-birlaridan o'tish uchun to'y va ziyofat qilsalar, birortasinikiga bormanglar, ularning taomlaridan yemanglar" [3, 160-b].

Kimdandir o'zish maqsadida yillar davomida misqollab topgan pullarini bir kunda havoga sovurib yuborish aqlli insonlarga xos ish emas. Fitrat ham bu borada keskin fikrlar aytadi: "Odam va hayvon o'rtasidagi farq shundaki, odam qilmoqchi bo'lgan ishini o'zining aql kuchi bilan har tomonlama o'ylab, oqibatini andisha va mulohaza qiladi. Hayvonlar bundan mustasno. Endi siz bir odat va rasmning zarari yo foydasini o'ylamay, uni urf-odat deb joriy qilsangiz, hayvondan qanday farqingiz qoladi?" [3, 44-b].

Mashhur alloma, Turkiston jadidchilik harakatining otasi deb e'tirof etilgan Mahmudxo'ja Behbudiy 1913-yilda "Oyina" jurnalining 6-7-sonlarida chop etilgan "A'molimiz yoinki murodimiz" nomli maqolasida jamiyatimizda mavjud urf-odatlar, xususan, to'ylar haqida fikr yuritadi: "Bechora kosibning a'moli to'ydur.

O'zi rohat yuzi ko'rmaydur. Kecha-kunduzni 18, balki 20 soatini mehnatg'a o'tkaraturgan kosiblarimiz bordur. Haqqincha yemaydur, kiymaydur. O'n va yigirma sanalar mehnat va mashaqqat etar va xudodan o'g'il tilar, to'y qilmoq uchun. Ana, bechorani a'moli. Yigirma sanali mehnati uch kun to'yda tamom. Yana Ahmad porina havli va xona girad. To'y musrifi uchun qarz egalaridan qochadur. Katta to'y qulub xotin olgan bir qism bechoralarni holiga yig'lamoq kerak. Uch kunlik to'yni a'zosi ba'zi oilalarda o'n yil, hatto, bir umr surar, balki bevatan va xonavayronlikg'a sabab bo'lur" [4, 105-b]. Behbudiy maqolada dabdabali to'ylar va azalar haqida to'xtalib, bu marosimlarga ko'p pul sarf qilmoq oxir-oqibatda xalqni faqir-u bechora qilishi haqida ta'kidlaydi. Shu to'ylarga sarf qilinadigan pullarni farzand tarbiyasi va ilm olishi yo'lida sarf qilishga chaqiradi. Jamiyat a'zolari Behbudiy ta'kidlaganidek, to'ylarga sarflangan mablag'ning yarmini farzandining ilm olishlari yo'lida sarflanganlarida edi bugun bu kabi muammolar bo'lmas edi.

1914-yilda "Oyina" jurnalining 16-sonida "Zo'raki boy" nomi ostida Behbudiyning yana bir maqolasi bosildi. Maqolada "boy"larning bir-biridan o'zish va xalqqa boyligini ko'rsatib obro' olish yo'lida qiladigan sarflari, ya'ni to'y va marakalar hamda ularning ayanchli oqibatlari haqida so'z boradi. Boylarning urf-odat va marosimlar uchun qilgan bema'ni xarjlari haqida aytadi va boshqalarning ular bilan teng bo'laman deya chiranishlari haqida shunday yozadi: "Bu odam o'zidek va, hatto o'zidan oz nimarsalik kishilarni ko'rarga o'g'ul to'yiga ikki-uch ming so'm sarf etar. O'g'liga xotun olib bersa yana bir, ikki, uch ming so'm sarf etar. Bir o'lik ko'msa, besh-olti yuz so'm xarj etar. Hatto, olti oylik bolasini sochini olganda va yo olti kunlik bolasini beshikg'a bog'laganda bir-ikki yuz so'm sarf etar. Fotiha, chanladi, dubora-tatabon, kalutapo'shon, mo'ylabgiron va boshqalarini nari qo'yduk, xulosa, bechora o'n ming so'mlik mulkdor qaraydurki, ish bo'lmaydur. O'g'ul va qizlar katta bo'lub turubdur. To'y lozim, xatna, nikoh, uning orqasidan keti uzulmas bir surak ma'raka va qoidalar lozim. Ko'pdan chiqib bo'lmaydur. Bechora odam o'ylovga tushar. To'y qilmoq uchun bir-ikki tanob bug'doy va yerdan sotsa, ko'zi qiymaydur. To'y qilmasa, bo'lmaydur. Bas, noiloj o'ylab-o'ylab, do'kondorlik, ya'ni bazzozlik va choyfurushlik va yo boshqasini

qilmoqchi bo'lib do'kon ochar. Bonkalardan kredit (e'tabar) ochar" [4, 108-109-b] Xulosa, oxir oqibatda bu kabi zo'raki boylar bankdan ko'targan kreditlar va qarzlarni to'lay olmay xonavayron bo'ladi va ahl-u ayoli bilan darbadar bo'ladi.

Bugungi kunda ham ko'z-ko'z qilish maqsadida qilinayotgan hashamatli to'ylarning dovrug'i butun yurtimiz bo'ylab tarqalmoqda. Agar aql bilan o'ylab qaralsa, bularning barchasi quruq dabdababozlik va o'z boyligini ommaga ko'z-ko'z etishdan boshqa narsa emasligi ayon bo'ladi. Besh barmoq barobar emas deganlaridek bu kabi to'ylarni o'tkazishga hammaning ham qurbi yetmaydi va dabdabali to'ylar o'z-o'zidan jamiyatdagi tabaqalanish holatini yuzaga chiqarib qo'yadi. Tabaqalanish holati esa jamiyatdagi ko'plab madaniy va axloqiy muammolarning ko'payishiga olib keladi.

Behbudiy "Bizni kemirguvchi illatlar" nomli maqolasida to'y va aza kabi an'analarni illat sifatida ko'rsatiladi: "Bizni kemirguvchi illatlar deganda, zaxm-u maraznimi gumon etarsiz? Yoinki, sil, silariya va maxavliknimi dersiz? Yo'q, andan ham yomonroq va andan ham jonxarosh, bevoya, xonavayron va g'arib etguvchi bir dard, biz – turkistoniylarni shahri va qishloqi yoyinki yarim madaniy, yarim vahshiy sinflarimizg'acha istilo etib, butun tirikligimizg'a sorilgon va bizni inqirozg'a va tahlikag'a va jahannamg'a yumalata turg'on to'y, azo ismindaki ikki qattol dushmanni derman" [4, 131-b]. Behbudiy to'y va aza marosimlarini millat uchun kasallikdanda xavfliroq deb ataydi. To'y va azalarni o'tkazish uchun katta qarzar olgan insonlar, oxir-oqibat qarzi o'rniga ota-bobosidan meros yerlarni sotadi va bu yerlar o'zga millat vakillarining mulkiga aylana boshladi.

Asta-sekinlik bilan yurt fuqorolari vatangado bo'lishadi. Bu haqida maqola davomida shunday yoziladi: "Bu hol ila 20-30 sana o'tsa, er va havlilar ajnabiylarg'a o'tub, aksar xalqimiz gadoylik darajasig'a inur. Ellik sana muqaddam yer sotilsa, bir musulmon olardi, endi boshqalar olur. Mana, endi biz shu hol ilan yana yigirma-o'ttuz yil o'tkarsak, xalqimizni yarmidan ziyodasi vatansiz, yersiz, darbadar bo'laturgoni ma'lum va oshkordur" [4, 134-b].

Jadid ziyolilari bir qator dramatik asarlarida ham bu muammoni aks ettirishdi. Abdulla Qodiriyning 1915-yilda o'zining "Baxtsiz kuyov" dramasini yozadi. To'rt

pardali dramada dabdabali to'ylarning fojiaviy oqibatlarini tasvirlaydi. Dramada Solih va Rahimaning fojiali qismati fonida ortiqcha dabdabali to'ylar insonlar hayotiga qanchalik salbiy ta'sir etishi haqida hikoya qilinadi.

Asarda “qarz uzilur, xotin yonga qolur” deya to'y uchun boydan olti oy muddatga qarz olinadi. Garovga esa Solihning otasidan qolgan yagona merosi – hovli qo'yiladi. To'y “orzu qilgandek” otadi. Qarz qaytariladigan muddat yetib keladi. Solih qarzga yetarli pulni topolmaydi. Hovlidan ajralib, ko'chada qolish – sharmanda bo'lishdan ko'ra o'z joniga qasd qilishni tanlaydi. Shunda Rahima undan pichoqni oladi va usiz yasholmasligini aytadi, so'ng pichoqni o'ziga urib jon beradi. Uning ortidan shu pichoqdan Solih ham halok bo'ldi.

Asarda domla-imomning so'zlariga e'tibor qaratsak: “Agar bu kishining aytganlaridek qilsangiz, xalqqa kulgi bo'lasiz. Olug'-solug' qilinmasa bo'lmaydur. (Ellikboshiga qarab) Olug'-solug' yurtning rasmi, buni qilmang demog'ingiz ayb gap!” [2, 84-b]. Shariat hukmiga mos, kamxarj to'y qilishni maslahat berish o'rniga bu kabi gaplar qilgan domlaning so'zlaridan jamiyatning ma'naviy holati qanchalik tubanlashganini bilsak bo'ladi.

Abdulla Avloniyning “Advokatlik osonmi?” dramasi bir qismida dabdabali marosimlarning salbiy oqibati haqida yozadi. Asarda Egamberdi ismli bir aravakash bolasini to'y qildirish uchun butun borini sarflagan, kamiga uyini garovga qo'yib qarz ko'targan edi. U advokatning yoniga yordam so'rab keladi. Bu kabi taqdirar ko'plab jadidlarning asarlarida uchraydi. Ma'rifatparvarlar jon-jahdi bilan bu kabi illatlardan jamiyatni qutqarish uchun harakat qilishdi. Ammo bugungi kunda ham bu illatlar, isroflar ortsa ortdiki, kamaygani yo'q. Sanoqli odamlarninggina harakati bilan bu illatni yo'qotib bo'lmashligini biz tarixdan yaxshi angladik. Shunday ekan bu illatga qarshi birgalikda kurashmoq lozim. “Advokatlik osonmi?” dramasida advokat Davronbek bu kabi illatlarni yo'qotish haqida to'xtalib shunday deydi: “Munday bid'at va isroflarning yo'q bo'lmog'i xalqimizning maorif va madaniyat ila taraqqiy qilmog'iga bog'liqdur. Agarda biz hozirgi ilm va urfon taraqqiy qilub, butun dunyog'a nur sohib turg'on bir zamonda eng muhim vaqtlarimizni ana shunday bid'at, quruq o'yin-kulgi, tortish va talashlar birla

o'tkarsak, dunyo yuzindan inqiroz olamig'a qarab ketmog'imizga shak va shubha yo'qdur" [1, 331-b].

Davlatimiz siyosatida ham bu masalaga katta ahamiyat qaratib kelinmoqda. Bugungi kungacha to'y va marosimlarni o'tkazish to'g'risida ko'plab hukumat qarorlari qabul qilindi. 2018-yil 29-iyunda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining "To'y-hashamlar, oilaviy tantanalar, maraka va marosimlar, marhumlarning xotirasiga bag'ishlangan tadbirlar o'tkazilishini tartibga solish to'g'risida"gi senat qarori qabul qilindi. Bu qaror to'y-hashamlarni tartibga solish bo'yicha dastlabki muhim qarorlardan biri edi. 2019-yil 14-sentyabrda O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik Palatasi va Senat Kengashining qo'shma majlisida

"To'y-hashamlar, oilaviy tantanalar, maraka va marosimlar, marhumlarning xotirasiga bag'ishlangan tadbirlar o'tkazilishini tartibga solish to'g'risida"gi qo'shma qaror qabul qilindi hamda uning nizomi tasdiqlandi. 2025-yil

16-sentyabrda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 589-sonli qarori "Oqilona iste'mol" dasturi doirasida to'ylar, marosimlar va oilaviy tadbirlarni nazorat qilish bo'yicha yangi tartiblar belgilandi. Ushbu qaror bilan ortiqcha xarajatlarga sabab bo'luvchi "sep yoydi", "kuyov navkari", "mato ulashish" va boshqa urf-odat va marosimlar taqiqlandi. Bu kabi muammolarga davlat siyosati darajasida qaralayotgani barchamiz uchun quvonarlidir. Muammoga qarshi davlat hamkorligida birgalikda kurashmog'imiz hamda bu kabi to'y va marosimlarni kamaytirishni har birimiz, avvalo, o'zimizdan va atrofimizdan boshlashimiz lozim. Shundagina asta-sekinlik bilan bu kurashda muvaffaqiyat ostonasiga chiqa olamiz. Birgalikda jamiyatimizda ildiz otgan shu va shu kabi muammolarni hal eta olsak, milliy madaniyatimiz, qadriyatlarimiz va iqtisodiyotimiz uchun ham katta yordam qilgan bo'lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qosimov B., Oltinbek O. *She'rlar, pedagogik asarlar, drama, maqolalar va sayohatnoma.* – Toshkent: Zabarrjad Media, 2024. – 432- b.

2. Qodiriy X. *She'rlar, hikoyalar, ocherk, drama, hajviya va kichik asarlar* – Toshkent: Zabarjad Media, 2024. – 400- b.
3. Vohidov Sh. *Oila yoki oilani boshqarish tartiblari*. – Toshkent: Yoshlar matbuoti, 2024. – 160- b.
4. Behbudiy M. *Padarkush: drama, hikoya, maqola va hikmatlar*. – Toshkent: Yoshlar matbuoti, 2024. – 160- b.

